



O'ZBESTONNING IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION SIYOSATI

*dots. **Abdiyeva Dilfuza***

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0003-9100-2561

abdiyevad26@gmail.com

Begimqulova Lola

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0006-7908-9280

begimqulovalola065@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonning innovatsion siyosati iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, resurslardan samarali foydalanish, yangi bozorlarni egallash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu borada qabul qilinayotgan strategiya va dasturlar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi. Maqolada innovatsion siyosatning asosiy yo'nalishlari, uning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri hamda mavjud imkoniyatlar va muammolar ilmiy-analitik yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-analitik, integratsiya, innovatsion siyosat, innovatsion iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, ilmiy-texnik rivojlanish, startaplar, iqtisodiy o'sish.

ИННОВАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА В ЭКОНОМИКЕ

*доц. **Абдиева Дилфуза***

Университет экономики и педагогики

Бегимкулова Лола

Университет экономики и педагогики

Аннотация. Инновационная политика Узбекистана направлена на ускорение экономического роста, эффективное использование ресурсов, освоение новых рынков и повышение уровня благосостояния населения. В этом контексте реализуемые стратегии и программы служат достижению долгосрочных целей развития страны. В статье на основе научно-аналитического подхода рассматриваются основные направления инновационной политики, её влияние на отрасли экономики, а также существующие возможности и проблемы.

Ключевые слова: научно-аналитический подход, интеграция, инновационная политика, инновационная экономика, цифровая экономика, научно-техническое развитие, стартапы, экономический рост.

INNOVATION POLICY OF UZBEKISTAN IN THE ECONOMY

assoc. prof. **Abdiyeva Dilfuza**
University of Economics and Pedagogy
Begimqulova Lola
University of Economics and Pedagogy

Abstract. *Uzbekistan's innovation policy is aimed at accelerating economic growth, ensuring efficient use of resources, expanding into new markets, and improving public welfare. In this regard, the strategies and programs being implemented serve the country's long-term development objectives. The article examines the main directions of innovation policy, its impact on various sectors of the economy, as well as existing opportunities and challenges, based on a scientific and analytical approach.*

Keywords: *scientific-analytical approach, integration, innovation policy, innovative economy, digital economy, scientific and technological development, startups, economic growth.*

Kirish.

Ayni globallashuv jarayonida mamlakatlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri innovatsiyalarni iqtisodiyotga keng joriy etishdir.

Jahon bozorlarida ilmiy, texnologik yangilanishlar sur'atining tezlashuvi O'zbekiston oldiga ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangidan-yangi ishlab chiqarish standartlarini joriy etish va mahsulotlar yaratish kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda. Shu sababdan so'nggi yillarda mamlakatda innovatsion rivojlanishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, startap ekotizimini shakllantirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, Prezident tomonidan qabul qilingan "Innovatsion rivojlanish strategiyasi", ilm-fan va startaplarni qo'llab-quvvatlash¹ ga oid qarorlar, shuningdek raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu hujjatlar iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, sanoatning texnologik darajasini oshirish va global raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab iqtisodchilar va tadqiqotchilar innovatsion siyosatning asosiy yo'nalishlari davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining innovatsion rivojlanish bo'yicha farmon va qarorlarida innovatsiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyot, startaplar va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan (Farmon, 2022).

Mahalliy olimlar tomonidan yozilgan ilmiy asarlarda innovatsion iqtisodiyot tushunchasi va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Abdullayev (2020) innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslarini ochib berar ekan, innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi.

Qodirov va Jo'rayevlarning (2019) tadqiqotlarida esa innovatsion siyosatni amalga oshirish mexanizmlari hamda davlat va xususiy sektor hamkorligining ahamiyati yoritilgan.

¹ <https://yuz.uz/uz/news/2022-2026-yillarda-ozbekiston-respublikasining-innovatsion-rivojlanish-strategiyasini-amalga-oshirish-boyicha-tashkiliy-chora-tadbirlar-togrisida>

Xalqaro iqtisodiy nazariyalarda innovatsion rivojlanish masalasi Shumpeter (2017) nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish usullari orqali bozor muvozanatini yangilab turadi.

Ushbu nazariy yondashuv O'zbekiston innovatsion siyosatini shakllantirishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning iqtisodiyotdagi innovatsion siyosati davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda va u barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotdagi innovatsion siyosatini o'rganish va tahlil qilishda umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi innovatsion jarayonlarning mohiyati, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda davlat innovatsion siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida innovatsion siyosatga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va ilmiy manbalar o'rganildi. Ushbu metodlar yordamida innovatsion siyosatning tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatildi va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Innovatsiya" tushunchasining ma'nosi va mazmuni ancha kengdir. Innovatsiyalar sohasi keng ko'lamli bo'lib, u nafaqat ilmiy-texnik ishlanmalar va ixtirolardan amaliy foydalanishni qamrab oladi, balki mahsulot, ishlab chiqarish, jarayonlar, marketing (savdo), tashkilotlaridagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi.

Innovatsion rivojlanishni belgilovchi omillar:

- bozorga oid kon'yunktura va raqobat;
- fan va texnikaning rivojlanish darajasi, qonuniy va me'yoriy asos, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik muhiti;
- kadrlar (olimlar, mutaxassislar, tadbirkorlar, menejerlar, siyosiy arboblardir, davlat xizmatchilari);
- resurslar (tabiiy, ishlab chiqaruvchi, moliyaviy, ilmiy-texnik, texnologik, infratuzilma).

O'zbekiston innovatsion siyosatining asosiy maqsadi – ilm-fan yutuqlari, ilg'or texnologiyalar va raqamli yechimlar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iboratdir.

Innovatsiyalar turli mezonlar asosida tasniflanadi:

Mahsulot innovatsiyasi – bu mavjud mahsulotni sezilarli darajada yaxshilash yoki bozorga butunlay yangi mahsulot olib chiqish jarayonidir. Qisqacha aytganda, bu mijoz muammosini yangicha va samaraliroq hal qilishdir.

Jarayon (protsess) innovatsiyasi – bu mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada tez, arzon, sifatli va samarali qilishga qaratilgan yangilikdir. Ya'ni mahsulot o'zi o'zgarmasligi mumkin, lekin uni yaratish usuli o'zgacha yangilanadi.

Tashkiliy innovatsiya – bu korxona yoki tashkilotda boshqaruv, ishni tashkil etish va ichki tuzilmani yangicha va samaraliroq yo'l bilan o'zgartirishdir. Bunda asosiy e'tibor texnologiyaga emas, insonlar, jarayonlar va boshqaruv uslublariga qaratiladi.

Marketing innovatsiyasi – bu mahsulot yoki xizmatni bozorga chiqarish, targ'ib qilish, narxlash va mijoz bilan aloqa qilishda yangicha va samarali usullarni qo'llashdir. Ya'ni mahsulot o'zgarmasligi mumkin, lekin uni qanday sotish va tanitish yangilanadi.

Korxonalarining muhim vazifalaridan biri mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlash va shu bilan birga aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qayta ishlash sanoatini esa zarur texnologiyalar bilan ta'minlashdir. Ushbu masalani hal qilish kelajakda korxonani intensivlashtirish, fan-texnika taraqqiyotini yanada jadal rivojlantirish, iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, turli xil mulk shakllari va xo'jalik yuritishning turli shakllarini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Xo'jalik yuritishning ilmiy asoslanganlik darajasini yuksaltirish, ishlab chiqarishni boshqarishda tashabbuskorlik va faollikni kuchaytirishning asosiy sharti korxonalarda mutaxassislarni iqtisodiy jihatdan tayyorlash hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda innovatsion texnologiyalar – ishlab chiqarishda raqobat kurashida saqlanib qolish imkoniyatini beruvchi innovatsion loyihani ishlab chiqishning mohiyati istiqbolda juda katta iqtisodiy ahamiyatga egadir. Raqobat va bozordagi tez o'zgaruvchan sharoitlarda, nafaqat butun e'tiborni korxona ichki jarayonida mujassamlashtirish, balki uzoq muddatli innovatsion texnologiyani ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi.

Innovatsion siyosat doirasida hozirda texnoparklar, innovatsion markazlar va startup loyihalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ilmiy g'oyalarni tijoratlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga imkon bermoqda. Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning kuchayishi innovatsion jarayonlarning samaradorligini oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot innovatsion siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Elektron hukumat, raqamli moliya xizmatlari, elektron savdo va sanoatda avtomatlashtirish jarayonlarining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish biznes muhitini yaxshilash va boshqaruv tizimlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsiyalarni tarmoqlar bo'yicha tasniflash ham har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Bu xususiyatlar ularning har biriga alohida yondoshuvni taqozo etadi. Korxonalarini boshqa tarmoqlarga nisbatan, joriy qilinishi va amalda sinab ko'rilishi jihatidan tubdan farq qiladi. Masalan sanoat sohasi bilan korxonalar bir biridan tubdan farq qilgan holda mo'ljallangan investitsiyalarni qo'llashni bir hilda olib borib bo'lmaydi. Shu sababli innovatsiya korxonalarda yoki korxonalarga mo'ljallangan investitsiyalar deb yuritiladi. Ammo innovatsiyalar tarmoqlar bo'yicha tasniflanganda ularning bir-biriga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning iqtisodiyotdagi innovatsion siyosati barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish innovatsion siyosatning ustuvor vazifalari hisoblanadi. Kelgusida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish natijasida:

- Innovatsion mahsulotlar ulushini YAIMda oshirish;
- Ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash;
- Eksportbop yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Raqamli iqtisodiyot ulushining oshishi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning innovatsion siyosati – bu mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqish, bilim va texnologiyalar asosida iqtisodiy yuksalishga erishish strategiyasidir. Innovatsiyalarni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki jamiyatning intellektual salohiyatini ham oshiradi.

Adabiyotlar / Лумепамура / Reference:

Abdullayev A.X. (2020) *Innovatsion iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

Mamanazarova N.J., Mirjamilova H. (2024) *Resurstejamkor texnologiyalardan foydalanishning tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirishga ta'siri*. *Экономика и социум*, 248-254.

Mirziyoyev Sh. (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Innovatsion rivojlanish strategiyasi*. – Toshkent.

Qodirov A., Jo'rayev B. (2019) *Milliy iqtisodiyotda innovatsiyalarni rivojlantirish*. – Toshkent.

Safoevna S.Z., Juraevna M.N. (2021) *Sustainable management and efficient use of water resources in the conditions of economic modernization*. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11 (3), 1202 3.

Shumpeter J. (2017) *The Theory of Economic Development*. – New York.

Бегалиева, М.А. (2025) "Рақамли иқтисодиёт ва халқаро рақамли интеграция". *New Renaissance xalqaro journal*. Volume 1 Issue 8. May.

Равшанова, М. М. (2024). *Значение педагогических экспериментов в развитии эконометрических навыков учащихся*. *Экономика и социум*, (3-1 (118)), 836-839.

Шодиев Б.Т., & Абдиева Д.К. (2023). *Увеличение объемов производства продукции каракулеводства*. *экономика и социум*, (12 (115)-1), 1559-1562.

Шохўжаева З.С., Маманазарова Н. (2020) *Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида сув ресурсларидан фойдаланиш борасидаги хорижий тажрибаларнинг аҳамиятли жиҳатлари*. *Инновацион технологиялар*, 82-88 1.